IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

ALISHER NAVOIYNING ”TARIXI ANBIYO VA HUKAMO“ ASARIDA AXLOQIY-TA’LIMIY QARASHLARNING IFODASI

Xolmatova Sevinchxon Dilmurod qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20062363

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ”Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida ilgari surilgan axloqiy-ta’limiy qarashlar tahlil qilinadi. Asarda payg‘ambarlar va donishmandlar hayoti misolida insoniy fazilatlar, ilm-ma’rifat, sabr-qanoat, adolat va komillik g‘oyalari yoritilgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, asarning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Tarixi anbiyo va hukamo, axloq, komil inson, ilm-ma’rifat, hikmat.

Abstract: This article analyzes the moral and educational views put forward in Alisher Navoi's work "The History of Prophets and Rulers". The work shows that the life of prophets and wise men illustrates the ideas of human virtues, knowledge and enlightenment, patience and contentment, justice and perfection. It also discusses the importance of the work in the education of today's youth.

Keywords: Alisher Navoi, Historical prophets and rulers, morality, perfect person, science and enlightenment, wisdom.

Аннотация: В данной статье анализируются моральные и воспитательные взгляды, изложенные в труде Алишера Навои «История пророков и правителей». Работа показывает, что жизнь пророков и мудрецов иллюстрирует идеи человеческих добродетелей, знания и просвещения, терпения и довольства, справедливости и совершенства. Также обсуждается важность этого труда для образования современной молодежи.

Ключевые слова: Алишер Навои, исторические пророки и правители, мораль, совершенный человек, наука и просвещение, мудрость.

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiyning ilmiy, badiiy va tarixiy asarlari alohida o‘rin tutadi. Uning nasriy merosi tarkibiga kiruvchi ”Tarixi anbiyo va hukamo“ asari tarixiy-badiiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda payg‘ambarlar va hukamolar hayoti bayon qilinar ekan, ular faoliyati misolida yuksak axloqiy fazilatlar targ‘ib etiladi. Asar nafaqat tarixiy ma’lumotlar manbai, balki ta’lim-tarbiyaviy ruhdagi asar sifatida ham qadrlanadi.

”Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida qadimgi davrlardan boshlab turli zamonlarda yashab o‘tgan payg‘ambarlar va hakimlarning hayoti izchil tarzda bayon etiladi. Muallif voqealarni sodda, ravon va ta’sirchan uslubda tasvirlab, o‘quvchini ezgulik, sabr-toqat, ilmga intilish kabi yuksak fazilatlarga chorlaydi. Shu jihatdan asar o‘z davri ijtimoiy-ma’naviy qarashlarini aks ettiruvchi nodir manbalardan sanaladi.

Asarning yaratilishi va mazmuni

Buyuk mutafakkirning ”Tarixi anbiyo va hukamo“ risolasi islom dini manbalariga asoslangan nasriy yo‘lda yozilgan asar bo‘lib, payg‘ambarlar – rasul va nabiylar hamda hakim

zotlar – allomalar tarixiga bag‘ishlangan. Shu ma’noda asarni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin:

Anbiyo – payg‘ambarlar tarixi.

Hukamo – hakim zotlar tarixi.

Musulmon Sharqida anbiyolar to‘g‘risida turli rivoyat va qissalar mavjud bo‘lgan. Alisher Navoiy bu asarini yozish uchu o‘ziga qadar yozilgan tarix va siyrat kitoblarini ko‘zdan kechirib chiqqan. Shoir ”Ahli tafsir debdurlarkim“, ”Banokatiy tarixida debdurkim“, “ Tarixi Ja’fariy “ da bitibdurkim, deb turli kitoblarga murojaat etadi. Payg‘ambarlar hayotining ayrim qirralarini yoritishda ehtiyot bo‘ladi. Chunki:

Tarix ahlining ixtilofi ko‘ptur,

”Shahnoma“ning ul nav’ki lofi ko‘ptur.

Ba’zi mutaassib el gazofi ko‘ptur,

Sen yozg‘ali ham nuktai vofi ko‘ptur.

Yuqorida keltirilgan asarlarda tarixiy voqealar, ba’zi podshohlarning yurishlari din tarixiga oid ma’lumotlar bilan birga berilgan bo‘lsa, ”Qisas ul-anbiyo“lar, xususan Nosiruddin Rabg‘uziyning ”Qisasi Rabg‘uziy“ asarida aynan payg‘ambarlar tarixi keltirilgan. Lekin Navoiy ushbu asarini yozishda xushyorlik bilan yondashib, birlamchi manba sifatida Qur’oni Karimga, tafsirlarga murojaat etadi. Kalomi majidda kelgan Payg‘ambarlar haqidagi qissalarga e’tibor qaratib, kerakli o‘rinlarda oyatlardan iqtiboslar keltiradi va fikrini dalillaydi. Ayrim o‘rinlarda Ibni Abbos roziyallohu anhu kabi mashhur shaxslarning naqllariga va o‘zi ishonchli deb bilgan kitoblarga suyanadi.

Navoiy Payg‘ambarlar qissasini birinchi odam va ilk Payg‘ambar bo‘lgan Odam alayhissalom voqeasini yoritish bilan boshlaydi va Jarih rohib voqeasi bilan tamomlaydi. Oltmoshdan ziyod payg‘ambarlar va ularning avlodlariga oid shaxslarning nomi keltiriladi. Birinchi qismda Odam alayhissalomdan tortib, Nuh, Ya’qub, Yusuf, Muso, Iyso alayhissalom kabi ma’lum va mashhur payg‘ambarlarning hayoti, xalq va jamiyat o‘rtasida olib brogan diniy-ma’rifiy va axloqiy xizmatlari, hidoyatga tashviq qilganlari, ko‘rsatgan mo‘jizalari, qarshilik qilgan guruhlar bilan olib brogan mujodala va kurashlari bayon qilib berilgan. Qissa davomida ba’zi payg‘ambarlarga ko‘proq, ayrimlariga ozroq to‘xtalinadi. Payg‘ambarlar qatorida nabiy bo‘lmagan, ammo saltanatni yuritgan shaxslar haqida ham zarur ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Masalan, Shis alayhissalomning o‘g‘li Anush payg‘ambar bo‘lmasa ham, odil hukmdor, saxiy va valiy ekani, xurmo daraxtini ekishni va sadaqa berishni u boshlab bergani, Idris alayhissalomning otasi Yazid ibni Mahloyil esa yurtni boshqarish jarayonida ariqlar qazigani haqida rivoyatlar keltiriladi. Shuningdek, asarda Barsisoy obid, Shamsun obid, Jarih rohib kabi tarixiy shaxslar bbilan bog‘liq voqealarning ibratli jihatlari ko‘rsatib beriladi.

Navoiy har bir payg‘ambar ahqida so‘z yuritganda qissadan hissa sifatida biror ibratli she’r ilova qiladi va uning mazmunida ikki narsani nazardan qochirmaydi. Birinchisi, she’rda shu payg‘ambarga tegishli biror xislat yoki voqeaga ishora qilsa, ikkinchisi, inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar o‘limga mahkum ekanligini uqtiradi.

Navoiy payg‘ambarlar haqida so‘z yuritar ekan, ”Olimlar Payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir“, ”Ummatimning olimlari Bani Isroilning Payg‘ambarlari kabi“ hadislarni tez-tez tilga olib turadi va olimlikning sharafli ekaniga diqqatni qaratadi. Sharqda hakimlikning darajasi esa olimlikdan yuqori turgan va hakimlik donishmandlik timsoli bo‘lgan. Ilm-u

ma’rifatda yuksak bo‘lgan hikmat sohibini hakim deyishgan. Navoiyning payg‘ambarlardan keyin hakimlarni zikr qilishi asardagi mantiqiylikni, davomiylikni ta’minlagan deyish mumkin.

Shoir ikkinchi ”Hukamolar zikri“ qismida Fishog‘urs, Jomosp, Aflotun, Aristotolis, Suqrot, Buqrot kabi o‘n uch nafar hakimlar haqida ma’lumotlar berib o‘tadi. Navoiy hukamolar tavsiflarini berib o‘tgandan so‘ng ularning hikmatli so‘zlaridan namunalar beradi. She’riy parchalar bilan fikrini xotimalaydi.

Asarda axloqiy qarashlarning ifodasi

Asarda eng asosiy g‘oyalardan biri – insonni komillikka yetkazish masalasidir. Navoiy Payg‘ambarlar hayoti orqali halollik, sabr-toqat, rostgo‘ylik, adolat, mehr-shafqat kabi fazilatlarni ochib bergan. Masalan, Nuh alayhissalom qissasini olaylik. Nuh alayhissalom uzoq umr ko‘rgan payg‘ambarlardan hisoblanadi. U turli ilohlarga, butlarga sig‘ingan, fitna-fasodga berilgan, ayniqsa, bachchavozlikka odatlangan qavmini to‘g‘ri yo‘lga boshlab, Allohdan qo‘rqishga, faqat Unga ibodat qilishga da’vat etadi. Lekin qavmi uzoq yillar davomida uning so‘ziga kirmay, masxara qilgan. Hatto Nuh alayhissalomning xotini va Kan’on degan o‘g‘li ham uning so‘ziga kirmagan. Shunda Nuh alayhissalom Allohdan yordam berishni, kofirlarni jazolashni so‘raydi. (Shuaro surasi 118-119-oyatlar) Alloh uning iltijosini qabul etib, Nuh alayhissalomga kema yasashni va barcha jonivorlardan bir juftdan olib kemaga joylashtirishni buyuradi. Keyin osmondan juda ko‘p yomg‘ir yog‘diradi, yerning hamma tomonidan ham suv chiqartiradi. Osmon suvi bilan yer suvi qo‘shilib, ulkan to‘fon paydo bo‘ladi. Navoiy yozishicha, suv avval Nuh alayhissalom tandiridan qaynab chiqqan va olti oygacha bu hol davom etgan. Tamomi olamni suv bosgan. To‘fonda barcha kofirlar halok bo‘lgan, faqat kemadagilar sog‘ qolgan. To‘fon boshlanishidan oldin Nuh alayhissalomning Kan’on degan o‘g‘li kemaga chiqmagan, Nuh alayhissalomning otalik mehri qo‘zg‘ab, o‘g‘lini kemaga chiqishga undagan. Allohga kufr keltirgan farzand esa otasiga rad javobini aytib, iymon keltirishdan bosh tortgan va toqqa chiqib jon saqlamoqchi bo‘lgan, lekin u tezda suvga g‘arq bo‘lib ketgan. (Hud surasi 45-47-oyatlar). Suv pasaygandan keyin kema Judiy tog‘i ustiga kelib to‘xtaydi. Yer to‘fon suvini yutib bitirgach, Alloh Nuh alayhissalomni kemadan yerga tushishga buyuradi. Nuh alayhissalom va unga iymon keltirgan sakson kishi Musil degan yurt zaminiga tushishgan. Bu qissada Nuh alayhissalomning o‘z qavmi unga ishonmaganida ham, masxara qilganida ham sabr yo‘lini tuganini, har qanday qiyinchilikda Allohning amriga bo‘ysunganini, kema yasash haqidagi buyruqni ham so‘zsiz ado etganini va bu orqali bandaning Yaratuvchiga itoatini, qavmlarini najot topishini istab, ularni yaxshilikka chaqirganini, hatto o‘z o‘g‘li uchun ham qayg‘urganini ko‘rishimiz mumkin.

Nuh alayhissalom qissasi insonlarni kufr, itoatsizlik va kibrlanishdan qaytaradi. Shu bilan birga, sabr, iymon va tavba yo‘liga undaydi. Yana bir e’tiborli jihati, Alisher Navoiy payg‘ambarlarning iymoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlar ekan, Ayyub alayhissalomning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to‘smaganini aytadi, bu bilan sevgi va do‘stlikning sobit bo‘lishi haqidagi g‘oyalarini bayon qiladi. Faqatgina shu ikki qissaning o‘zidagi ijobiy xislatlar bilan cheklanib qolmay, Ibrohim alayhissalom qissasida e’tiqod va jasorat, Yusuf alayhissalom qissasida poklik va sadoqat kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Shuningdek, asarda zulm, yolg‘on, xiyonat, manmanlik kabi salbiy illatlar qoralanadi.

Asarning hukamolar qismida ilmning qadri, tafakkur va donishmandlikning ahamiyati keng yoritilgan. Muallif ilmli inson jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Donishmandlarning hikmatli so‘zlari orqali aql – zakovat, farosat, mehnatsevarlik va odob targ‘ib qilinadi. Navoiy ilmni insonni ulug‘laydigan eng buyuk ne’mat sifatida talqin etadi.

Xulosa

Alisher Navoiyning ”Tarixi anbiyo va hukamo“ asarini o‘qir ekanmiz, uning payg‘ambarlar va olimlar haqida nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek,”Tarixi anbiyo va hukamo“ asari boy tarixiy manba bo‘lish bilan birga, yuksak axloqiy– ta’limiy qarashlarni mujassam etgan nodir asar ekanligini ham yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. Sayfiddin Rafiddinov ”Tarixi anbiyo va hukamo“ asari to‘g‘risida
2. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov ”Navoiyshunoslik“ 1-kitob Toshkent 2019